

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ HO-AL-314
2023 yil



“Xorijiy til (Ispan tili)”
yo‘nalishi bo‘yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi

Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY – METODIK MARKAZI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI

Malaka oshirish kursinin o'quv dasturi Oliv, o'ra maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining

2023 yil 14.08 dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan

Tuzuvchilar:

Tayanch modullari: katta o'qituvchi Davurov X.Sh., f.f.f.d.
Ro'zieva S.A.

Taqrizchi:

Tkachyova A.A. – Samarqand davlat chet tillar instituti "Ispan va italyan tillari" kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Xorijiy ekspert:

Aranzazu Bernardo Ximénez, PhD, Kastilla la Mancha universiteti o'qituvchisi (Ispaniya).

O'quv dasturi Samarqand davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqla tavsiya qilingan
(2023 yil _____ dagi _____ - sonli bayonnomasi).

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning Ispan tilidan til aspektlari amaliyotiga oid zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini amalga oshirish, til ko'nikmalarida kommunikativ yondashuv asoslarini o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Ispan tilini o'qitishda pedagogik innovatsion metodlar
- 1.2. Til kompetensiyalari va baholash (assessment) tamoyillari
- 1.3. Ispan tilini o'qitishda onlayn platformalar
- 1.4. Modulga oid dolzarb mavzular tahlili.
- 1.5. Yakuniy nazorat.

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzduksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Til bilish kompetensiyalariga ega bo'lishlari talab etiladi:

- Baholash mezonlarini yaratish va ulardan samarali foydalanishni;
- kommunikativ va vazifaga asoslangan til o'rgatishda baholash mezonlarini;
- xorijiy tilni o'qitishdagi o'quv jarayonini rejalashtirish;
- xorijiy tilni o'qitishda sinf menejmentini;
- o'quv jarayonini baholash mezonlarini;
- til o'rganish jarayonlari va baholash usullari bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak.

Tinglovchi

til o'qitayotgan va o'rganilayotgan sharoitga qarab, o'quv jarayonini rejalashtirish uslublarini to'g'ri qo'llay olish;

- til o'rganuvchining ehtiyojlarini, bilim darajasini to'g'ri baholay olish va o'qitishning eng samarali usullarini qo'llay olish;
- talabalar o'zlashtirishini tahlil qilish, baholash va turli amaliy topshiriqlarni yaratish;
- o'z kasbiy maxoratini oshirishda kasbga doir adabiyotlardan va shaxsiy amaliyotdan umumli foydalanishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Tinglovchi:

til o'qitayotgan va o'rganilayotgan sharoitga qarab, o'quv jarayonini rejalashtirish uslublarini to'g'ri qo'llay olish;

- til o'rganuvchining ehtiyojlarini, bilim darajasini to'g'ri baholay olish va o'qitishning eng samarali usullarini qo'llay olish;
- talabalar o'zlashtirishini tahlil qilish, baholash va turli amaliy topshiriqlarni yaratish;
- o'z kasbiy maxoratini oshirishda kasbga doir adabiyotlardan va shaxsiy amaliyotdan umumli foydalanishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini egallashi lozim.

Tinglovchi:

chetchil tili ta'limida bilim, ko'nikma, malakalarni baholash;

- lingvistik va madaniyatlararo kompetensiyalarni baholash;
- nutq kommunikatsiyasi elementlari, sosiolingvistik elementlar pragmatik elementlar, baholashning asosiy turlarini o'zlashtirish;
- mavzuga oid o'limlar tomonidan bildirilgan fikrlarni tahlil qilish

malakalariga ega bo'ladi.

Tinglovchi:

O'yinga asoslangan o'quv platformalari o'quv strategiyasiga o'yin elementlarini kiritish

Tinglovchilar faolligini va ta'lim unumdorligini oshirish uchun mo'ljallangan texnologiyalardan foydalanish

O'yin ko'rinishidagi ta'lim berish platformalarining tinglovchilarda maqsad qo'yish, tezkor ravishda strategik fikrlash, o'zaro ta'sir ko'rsatish, fikr-

mulohazalar bildirish, muammolarni hal etish va raqobatga kirishish kabi kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“ISPAN TILI” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Ispan tilini o'qitishda pedagogik innovatsion metodlar

Pedagogik innovatsiya tushunchasi. Ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning mazmuni va mohiyati. Pedagogik innovatsiyalar xususiyatlarini anglash tushunish va innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etish.

Innovatsiya va u bilan bog'liq tushunchalarning pedagogik tavsifini tushunish; innovatsion faoliyatning muhim komponentlari va ta'lim tizimida innovatsion uslublarni ishlab chiqishning zaruriyati, shart sharoitlarini anglash; innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samadorligini oshirish yo'llari. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari. Innovatsion metodlarini ishlab chiqish va o'rganishning didaktik prinsiplarga yondashgan holda darslarni tashkil etish. Kutilayotgan natijalarni belgilash.

1.2. Til kompetensiyalari va baholash (assessment) tamoyillari.

Kurs davomida tinglovchilar dastlab namunaviy darslarda “til o'rganuvchi” rolda qatnashadilar, so'ngra o'qituvchi sifatida tavsiya etilgan darslar va mashqlarni tahlil qilishadi, maxsus testlarni yechishadi, portfolio topshiriqlarini bajarishadi, namunaviy dars o'tib berish orqali o'zlarining til o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishadi. Kurs ishtirokchilaridan kasbiy malakalaridan kelib chiqqan holda chet tillarni o'qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olishlari shuningdek, guruh ahzolari bilan darsda hamkor holda ish yuritishlari, o'zaro fikr almashishlari, interfaol usullarning samarali shakllarini tahlil sohasiga tadbiiq yetishga yerishishlari, mavjud ish tajribalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashishlari, xususan, ilg'or tajribalarni seminar-treninglar, amaliy kurslar, didaktik materiallar, metodik qo'llanmalar ko'rinishida ommalashtirish va ta'lim tizimida qo'llashlari kutilmoqda.

1.3. Ispan tilini o'qitishda onlayn platformalar

Ispan tilini o'qitish mahoratini rivojlantirishning masofaviy shakllari, onlayn o'qitishning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib berish, tinglovchilarga ish paytida

nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida gap boradi. Onlayn platformalar turlari va shu platformalar asosida o'qitishning ijobiy tomonlariga o'zgaruvchanlik, ishning ko'lami, talabalardagi mustaqillik va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish kiradi, O'qituvchi uchun odatiy (offline) o'qitish usullarini masofaviy formatda va ushbu usullardan foydalanishning turli texnologiyalaridan foydalanish zarurligi masalasi ham ko'rib chiqilib, topshiriqlar misollar bilan tushuntiriladi. Dars jarayonida talabalar bilan ishlashning har xil turlari, masalan, juftlik Quizzes, guruh yoki jamoaviy ish Kohoot, Zoom kabilar ochib beriladi. Shu bilan bir qatorda, masofaviy ta'limda qo'llaniladigan psixologiyaga oid matnlar misolida o'qish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun kommunikativ usullardan foydalanib, talabalar ixtisosligi bo'yicha matnlar bilan ishlashning har xil amaliy turlari bayon etiladi. Matnlar bilan ishlashning kommunikativ usullari sifatida voqealar zanjiri, tarix xaritasi, sabab-oqibat munosabatlarini anglab, o'qitishning afzalliklarini saqlagan holda masofaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish va optimallashtirish imkonini beradi.

1.4. Yo'nalishga oid dolzarb masalalar tahlili

Tinglovchilar mustaqil ravishda o'quv modullarining dolzarb masalalarini tahlil yetib, ularni hal yetish usullari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil yetish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keystar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishtidan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar

bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Tanlov modullarini o'zlashtirilganligi onlayn test sinovlari orqali aniqlanadi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilar tanlov modullarini to'liq o'zlashtirgan deb hisoblanadi. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 1875- sonli qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil Iiyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Sonia Íñigo, Isabel Rey, Fatima El Benai. "Manual de español para inmigrantes.Nivel A1". España 2006.
2. Sonia Íñigo, Isabel Rey, Fatima El Benai. "Manual de español para inmigrantes.Nivel A2". España 2006.
- 3.Sandor Laszlo. "Conversar es facil". España 2011.
4. Aula internacional 1 R. Castón, E. García, I. Ginés, Corpas, A. Garmendia, C. Soriano.España 2015.
5. Método de español Nivel 1 Toshxonov M.T., Turamuratova I.I., Tashniyozova Sh.X. Uzbekistan 2013.
6. "Español en marcha". Francisca Castro Viudez, Pilar Díaz Ballesteros, Ignacio Rodero Dies, Carmen Sardiner Franco. España 2011.
7. Amalia Balea, Pilar Ramos "Cultura en España" Nueva edición. España 2015.
8. Maria Victoria Romero Gualda "Publicidad y lengua española: un estudio por sectores (Spanish Edition)", Madrid Arco libros. 2016.
- 9.Susana Guerrero Salazar, Emilio Alejandro Nuñez Cabezas "Review of El lenguaje político español" 2022.

IV. Internet saytlar

1. <http://hubpages.com/profile/Judy+Cullins> (enespasol)
2. http://ezinearticles.com/?expert=Judy_Cullins (en espasol)
3. www.google.es
4. www.marco.ele
5. www.cervantes.es
6. <http://anayaale.com>
7. www.google.es
8. www.marco.ele
9. <http://www.rae.es>
10. www.cervantes.es

"ISHLAB CHIQILGAN":

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlaydigan Bosh ilmiy-metodik markazi

Direktor: T. T. Shoyimardonov

2023 y.

M.O.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Rektor: R. I. Xalmuradov

2023 y.

M.O.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ta'limiy pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish munitaqaviy markazi

Direktor: S. B. Abbasov

2023 y.

M.O.

"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi

Bo'lim boshlig'i: F. T. Esanboboev

2023 y.

M.O.